



# PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.

The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.



Volume 1, Issue 2



Exact  
Natural  
Medical  
Technical  
Economics  
Philological  
Pedagogical  
Social sciences  
and humanities





**«BEST PUBLICATION»**

*Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©*

**“PEDAGOG”  
RESPUBLIKA ILMIY JURNALI**

**MATERIALLARI TO’PLAMI**

**15-OKTYABR, 2022-YIL**

**2-SON**

O’ZBEKISTON  
2022

2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR

Ushbu to‘plamda “Pedagog” respublika ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o‘rin olgan. Mazkur jurnalda zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta’limni rivojlantirishda yo‘nalishlar bo‘yicha kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta’lim maktab o‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

**Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g’riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

**Bosh muharrir:**

Maqsudov Ulug‘bek Qurbanovich

*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Mas’ul muharrir:**

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o‘g‘li

*Farg‘ona davlat universiteti*

**Texnik xodim:**

Sultonov Sardorbek

*Farg‘ona davlat universiteti*

**TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI**

**Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna**

*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi**

*Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Sabirova Gulnoza Sadikovna**

*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Saidov Ixtiyor Muzropovich**

*Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i*

**Mamatova Nodira Muxtarovna**

*Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)*

**Rasulova Vasila Batirovna**

*Toshkent farmatsiyika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent*

**Nikadambayeva Hilola Batirovna**

*Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,*

*Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

**Pirimov Akram Pirimovich**

*Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent*

**Shodiyev Furqat Davranovich**

*Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari*

*nomzodi, Dotsent*

**Qurbanova Muqaddas Omonovna**

*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Baltayeva Ikbal Tadjibayevna**

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*

**Sayfullayeva Ra’noxon Raupovna**

*O‘zbekiston milliy universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.*

**Popova Tatyana Igorevna**

*SanktPeterburg davlat universiteti. Rossiya. Doctor filologicheskix nauk, professor.*

**Berdaliev Abduvali**

# **PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI**

**2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR**

*Tojikiston. Xo`jand davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.*

**Manzuraxon Ernazarova**

*Navoi davlat pedagogika instituti. Filologiya fanlari doktori, professor.*

**Uluqov Nosirlon Muxammadalievich**

*Namangan davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.*

**Jumanazarova Guljahon**

*Filologiya fanlari doktori. Jizzax davlat universiteti.*

**A.A.Qosimov**

*Farg`ona davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.*

**Jo`rayev Habibullo Abdusalomovich**

*Filologiya fanlari doktori. Farg`ona davlat universiteti.*

**Fayzimatov Shuxratjon No'monovich**

*Farg`ona politexnika instituti. Texnika fanlari doktori.*

**Hoshimov G'anijon Mirzaaxmadovich**

*Andijon davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.*

**Hulkar Hamroyeva**

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. O`zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi a`zosi, jurnalist.*

**O`rinboyev No'monjon O'rmonovich**

*falsafa fanlari nomzodi, dotsent. XTXMOIO`*

**Qurbanova Muqaddas Omonovna**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. Farg`ona davlat universiteti.*

**Qunduzxon Atabayevna**

*Filologiya fanlari doktori, professor. O`zbekiston. Jahon tillari universiteti.*

**Hojaliyev Ismoiljon Tojiboyevich**

*Farg`ona davlat universiteti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Erofeeva Inna Nikolaevna**

*Kandidat pedagogicheskix nauk, dotsent. Sankt Peterburg davlat universiteti. Rossiya.*

**Toshtemirova Zamira Sotvoldiyevna**

*pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Farg`ona davlat universiteti.*

**G.O.Abdugafurovich**

*Filologiya fanlari nomzodi. Farg`ona davlat universiteti.*

**Xudayarov Oybek Odilovich**

*Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti*

**Muxitdinova Muniraxon**

*Pedagogika fanlari fanlari doktori, (PhD)*

**MUNDARIJA:**

<b>1</b>	<b>Rahimova Gullola Baxromovna</b> «O'YINNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA FAOLIYATI SIFATIDAGI MOHIYATI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI»	<b>12</b>
<b>2</b>	<b>Karimova Nilufar Ergashevna</b> «STRESSDAN CHIQISH YO'LLARI. STRESSNING OLDINI OLİSH VA UNGA QARSHI KURASHISH USULLARI»	<b>15</b>
<b>3</b>	<b>Iroda Muhammadjanova Otobek qizi</b> "INSON QADRI"- TARAQQIYOT STRATEGIYASINING GAROVI	<b>20</b>
<b>4</b>	<b>Xujanova Lobar Raimkulovna</b> "РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКУМАТИНИНГ ТУРКИСТОНДА МИЛЛИЙ МАОРИФНИ ЧЕКЛАШ СИЁСАТИ"	<b>22</b>
<b>5</b>	<b>Xujanova Lobar Raimkulovna</b> <i>CHOR ROSSIYASI TOMONIDAN O'RTA OSIYONI MUSTAMLAKAGA AYLANTIRILISHINING NEMIS TARIXSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI</i>	<b>26</b>
<b>6</b>	<b>Мунира Рамазонова Ғуломжоновна</b> ПЕДАГОГИКА НИМА? АРТПЕДАГОГИКА НИМА? ЎСМИРЛАРНИ ПЕДАГОГИК САНЬАТ ОРҚАЛИ ТАРБИЯЛАШ	<b>32</b>
<b>7</b>	<b>Havoxon Elshodovna Xalilova</b> TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHINING TUTGAN O'RNI	<b>39</b>
<b>8</b>	<b>Шакирова Сахобат Наимовна</b> «O'SMILARDA O'Z JONIGA QASD QILISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI»	<b>42</b>
<b>9</b>	<b>O'rolova Dilnoza</b> «BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY O'QUV DASTURINI TATBIQ ETISH»	<b>45</b>
<b>10</b>	<b>Akbarova Shakarxon Abdulhayevna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH	<b>50</b>
<b>11</b>	<b>Yangiboyeva Gulnoza Ilimjonovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASAR TAHLIL QILISHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI	<b>54</b>
<b>12</b>	<b>Sattorova Rohatoy Solijonovna</b> KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARNI PUNKTUATSIYA BILAN TANISHTIRISH METODIKASI	<b>58</b>
<b>13</b>	<b>Mahmudova Nilufar Karimovna</b> SAVOD O'RGATISH DAVRIDА O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH	<b>62</b>
<b>14</b>	<b>Rayimjonova Nilufar Burxonbek qizi</b> MEN DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMNI QANDAY TUSHUNAMAN	<b>66</b>
<b>15</b>	<b>Yusupova Nafisa Togayevna</b> BOLA SHAXSIDA TARBIYANING O'RNI.	<b>71</b>
<b>16</b>	<b>Yunusova Nasiba Sharifovna</b> Gulmatova Ziroat Manapovna	<b>75</b>

	<b>MILLIY MA'NAVIY MADANIYAT TIZIMIDA XALQ TA'LIM-TARBIYASI VA MA'RIFIY IZLANISHLAR</b>	
17	<b>Qahhorova Sharofat Abdujabbor qizi</b> <i>ONA TILI DARSALARIDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI VA AHAMIYATI</i>	80
18	<b>Fazliddinova Zulfiyakhon Dilmurod qizi</b> <i>TEACHING GRAMMAR TO EFL YOUNG LEARNERS; UTILIZATION OF GRAMMAR-BASED GAMES.</i>	83
19	<b>Nasirdinov Fazliddin Nasirdinovich</b> <i>SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF THE INFLUENCE OF STATE BUDGET EXPENDITURE ON ECONOMIC GROWTH</i>	87
20	<b>Odilov Javohir</b> <b>Xolmirzoyev Mardon</b> <b>Abduhalimov Shahzod</b> <b>Aminov Jamshid</b> <b>Barnoyev Shahzod</b> <b>Negmatova G.Sh</b> <b>Tog'ayeva G.S</b> <i>BEMORLAR O'RTASIDA QANDSIZ DIABET KASALLIGINI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR HOLATI</i>	90
21	<b>Jumaqulova Munisa Olimjon qizi</b> <b>Boymurodova Barno Abduvali qizi</b> <b>Abdumurodov Otobek Sirojiddin o'g'li</b> <b>Daminov Amin Abdivohid o'g'li</b> <b>Jo'rayev Yusuf Musurmon o'g'li</b> <i>BEMORLAR ORASIDA GIPOFIZ BEZI GARMONLARI DISFUNKSIYASI NATIJASIDA KELIB CHIQUVCHI HOLATLAR</i>	92
22	<b>Ibragimov Firdavsxon Muhammadxon o'g'li</b> <i>NEMIS MAQOLLARINING LINGGUOKULTROLOGIK NUQTAI NAZARDAN TALQIN QILINISHI.</i>	96
23	<b>Akhmedova Sarvinozkhan Ravshanbek qizi</b> <b>Zamira Suyunova</b> <i>"EASTERN MAQAM AND SYSTEMS "</i>	100
24	<b>Xudayberdiyeva Moxicehra Alisher qizi.</b> <i>"USTOZLAR- YURTNING ENG AZIZ,ENG ULUG' VA MO'TABAR KISHILARDANDIR"</i>	104
25	<b>Amonova Mahliyo Safarovna</b> <i>VITAMINLARNING TIRIK ORGANIZMDAGI ROLI VA UALAR YETISHMOVCHILIGI OQIBATIDA KELIB CHIQADIGAN KASALLIK TURLARI</i>	107
26	<b>Xurramova Dilmira Xasan qizi</b> <b>Djamolova Shahnoza Srojiddinova</b> <b>Boymatova Munisa Shokir qizi</b> <b>Sattorova Shohsanam Muzaffar qizi</b> <b>Nasriddinova Sevara Olimjon qizi</b> <i>PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING NAZARIY VA</i>	111

	<i>METODOLOGIK ASOSLARI.</i>	
27	Шаходат Убайдуллаева Зайнабидиновна «ҚАДРИНГ БАЛАНД БҮЛСИН, ОНА ТИЛИМ!»	115
28	Гулноза Ёдгорова <i>АДАБИЁТШУНОСЛИК ФАНИНИ ҮҚИТИШДА ИНТЕЛЛЕКТ КАРТА ВА НОСТАНДАРТ ТЕСТНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ</i>	120
29	<b>Abdug'aniyeva Farangizbonu</b> <b>Umidaxon Boltaboyeva</b> <i>MUSIQALI TEATR AKTYORLIGI TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI TARBIYALASHDA VOKAL SAN'ATINING O'RNI</i>	124
30	Tuxtanazarova Gulnoz Abduvaxob qizi <i>CHINGIZ A YTMATOV "SOMON YO'LI"</i>	128
31	<b>Qushaqova Zamira</b> «MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA TARBIYACHI XODIMLARNING BOLA FAOLIYATIDAGI ROLI VA TARBIYACHI MAHORATI»	131
32	<b>Adhamova Oltinoy Rafiqjon qizi</b> <i>TURLI SHAKLDAGI UY RO'ZGOR BUYUMLARIDAN TUZILGAN NATURMORTNI QALAM TASVIRDA ISHLASH QOIDALARI.</i>	135
33	<b>Shodiyeva Samiya Hamzayevna</b> <i>O'QUVCHILARNING KASB TANLASHIDA MAKTAB PSIXOLGINING RO'LI</i>	140
34	<b>Mannonov Asliddin Akbar's son</b> <b>Abdusamatova Shahodat Khojiakbar's daughter</b> <i>IMPORTANT PROBLEMS OF THE CONCEPT OF CYBER SECURITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS</i>	145
35	<b>Qodirov Islombek Adahamjon o'g'li</b> <b>Ahmedov Shahboz Odiljon o'g'li</b> <i>O'SIMLIKLARDAGI MIKROELEMENTLAR UCHRASHI VA AHAMIYATI</i>	148
36	<b>Tursunaliyeva Dilshoda Tillaboy qizi</b> <i>TASHQI IQTISODIY ALOQALARNING IQTISODIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI</i>	151
37	<b>Abdurazzaqov Shaxzodxo'ja Shokirxo'ja o'g'li</b> <i>FARG'ONA VODIYSIDA CHORIZM MUSTAMLAKACHILIK ZULMING KUCHAYISHI</i>	155
38	<b>Umarov Ikromjon Baxromjon o'g'li</b> <i>YOQILG'ILAR VA YOQILG'INI YOQISH ASOSLARI</i>	158
39	<b>Султонов Фаррух Абдимавлонович</b> <i>ТАБИИЙ ЛОЙКА СУВЛАРНИ РЕАГЕНТЛАР ЁРДАМИДА ЗАМОНАВИЙ КИМЁВИЙ УСУЛДА ТОЗАЛАШ</i>	160
40	<b>Юсупова Каромат Жўраевна</b> <i>ЛАЗЗАТ БУЛОГИДАН СУВ ИЧГАН ТИЛИМ</i>	163
41	<b>Azimova Dildora Asliddin qizi</b> <i>A CONTRASTIVE STUDY OF GRAMMATICAL CATEGORIES OF NOUN IN ENGLISH AND GERMAN</i>	165

<b>42</b>	<b>Tuygabulova Aqiloy</b> <i>BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARINI DARS JARAYONIDA FAOLLIGINI OSHIRISH</i>	<b>169</b>
<b>43</b>	<b>Usmonova Norxol Qarshiyevna</b> <i>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BILIM OLISHGA BO'LGAN QIZIQISHINI O'STIRISH</i>	<b>172</b>
<b>44</b>	<b>Gulmera Narziyeva</b> <i>KELAJAK KASBLARI</i>	<b>176</b>
<b>45</b>	<b>Shoto'rayev Beg'am Ergash o'g'li</b> <b>Jalilova Kamola Shuxratjon qizi</b> <i>A.QODIRIYNING "O'TGAN KUNLAR" ROMANI ASOSIDA YOZILGAN O'ZBEK OPERASI "KUMUSH" VA USHBU OPERANING PREMYERASI TO'G'RISIDA.</i>	<b>180</b>
<b>46</b>	<b>Bahtiyorjonov Omadjon</b> <i>TEHNICA UNIVERSITETLARIDA MUTAHASIS FANLARIGA BOG'LIQ O'QITISH METODIKASI DIFFERENSIAL TENGLAMALARNING NORMAL SISTEMALARI.</i>	<b>185</b>
<b>47</b>	<b>Rajabova Gulruh Ravshanbek qizi</b> <i>AMUDARYO DELTASI LANDSHAFTI DINAMIKASI VA RIVOJLANISHI</i>	<b>190</b>
<b>48</b>	<b>Fayziyev Jaloliddin</b> <i>OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MATINLARI TARJIMASIDA TARJIMONNING SOXTA DO'STLARI</i>	<b>193</b>
<b>49</b>	<b>Raxmanova Dilfuza Uchkunovna</b> <i>BUYUK AJDODLARIMIZ TA'LIMOTIDA SOG'LOM AVLODNI TARBIYALASH.</i>	<b>197</b>
<b>50</b>	<b>Shokuchkarova Guljamol Kamol qizi</b> <i>TRANSLATION OF PROPER NOUNS</i>	<b>202</b>
<b>51</b>	<b>Yuldasheva S.M.</b> <i>THE MAIN PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF HUMAN VOCATIONAL ACTIVITY</i>	<b>204</b>
<b>52</b>	<b>Б.Н.Тўрақулов</b> <i>ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШДА КАСБИЙ ФАОЛИЯТНИНГ МОХИЯТИ</i>	<b>211</b>
<b>53</b>	<b>Солиева Ҳилола Махамадмусаевна</b> <b>Ахмаджонова Шахноза Яркиновна</b> <i>ХОДИМЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШАСЛАРИ.</i>	<b>217</b>
<b>54</b>	<b>Bafoyeva Sohiba.</b> <i>BOLADA TURLI XIL TEPERAMENTLARNING NAMOYON BO'LISHI.</i>	<b>224</b>
<b>55</b>	<b>Sindorov.R</b> <i>LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLARNI IFODALASHDA FRANSUZ VA O'ZBEK TILIDAGI MUOMALA MADANIYATIDAGI RASMIY VA NORASMIY MUROJAAT SHAKLLARI.</i>	<b>227</b>
<b>56</b>	<b>Dono Yuldasheva</b> <i>ESTETIK ONG</i>	<b>231</b>

<b>57</b>	<b>Алимова Ойдынхан Тургунбаевна РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ</b>	<b>236</b>
<b>58</b>	<b>Shavqiyev Rahmaddin «ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA TASHKILLASH YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR»</b>	<b>240</b>
<b>59</b>	<b>Xatamova Mehribon Tolibjon qizi O'ZBEK INTERNET MATNLARINI STILISTIK JIHATDAN O'RGANILISHI</b>	<b>244</b>
<b>60</b>	<b>Лобар Жазилбоевна Шамсиева ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА ИННОВАЦИЯЛАР</b>	<b>247</b>
<b>61</b>	<b>Pulatova Sabina Sharifovna Vohidova Mohinur Nusratillo qizi EZOP MASALI VA SOMERSET MOEMNING "CHUMOLI VA CHIGIRTKA" HIKOYASI O'RТАSIDАГИ O'XSHASHLIK VA FARQLARNING TAHLILI</b>	<b>255</b>
<b>62</b>	<b>Xoliqova Yoqutxon Mirzakarim qizi MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA OLIB BORILADIGAN ISHLAR.</b>	<b>260</b>
<b>63</b>	<b>Abdubannopov Abdulatif Abdulxaq o'g'li. Xonkeldiyev Mo'minjon Adxamjon o'g'li Nizomiddinova Maftunaxon Shoirjon qizi AVTOMOBIL TRANSPORTI VOSITALARINING EKSPLUATATSION XUSUSIYATLARI.</b>	<b>263</b>
<b>64</b>	<b>Abdubannopov Abdulatif Abdulxaq o'g'li. Xonkeldiyev Mo'minjon Adxamjon o'g'li Nizomiddinova Maftunaxon Shoirjon qizi TRASPORT VOSITALARIDA YUKLANISHLAR VA ULARNI HISOBBLASH REJIMLARI.</b>	<b>269</b>
<b>65</b>	<b>Nizomiddinova Maftunaxon Shoirjon qizi Xonkeldiyev Mo'minjon Adxamjon o'g'li Abdubannopov Abdulatif Abdulxaq o'g'li. NOMETALL MATERILLAR ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI .</b>	<b>272</b>
<b>66</b>	<b>Nizomiddinova Maftunaxon Shoirjon qizi Xonkeldiyev Mo'minjon Adxamjon o'g'li Abdubannopov Abdulatif Abdulxaq o'g'li. AVTOMOBILLARNING TEXNIK EKSPLUATATSIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI</b>	<b>276</b>
<b>67</b>	<b>Abdubannopov Abdulatif Abdulxaq o'g'li. Xonkeldiyev Mo'minjon Adxamjon o'g'li Nizomiddinova Maftunaxon Shoirjon qizi GAZ DIVIGATELINING TERMAL YUKINI KAMAYTIRISH.</b>	<b>284</b>
<b>68</b>	<b>Abdubannopov Abdulatif Abdulxaq o'g'li. Xonkeldiyev Mo'minjon Adxamjon o'g'li Nizomiddinova Maftunaxon Shoirjon qizi</b>	<b>292</b>

	<i>AVTOMOBILLARDA TASHISHNI ETISH, EKSPLUATATSIYA QILISH SHAROITLARI.</i>	
<b>69</b>	<b>Husen Hayrullayevich Jõrayev</b> <b>Masharibov Asrorbek Fahriddin o'gli</b> <b>Masharibova Ozoda Fahriddin qizi</b> <b>ÖRTA OSIYOGA ISLOMNING KIRIB KELISHI VA MAHALLIY XALQLAR ORASIDA YOYILISHI ARAB TILINING ILM FAN TILIGA AYLANISHI</b>	<b>296</b>
<b>70</b>	<b>S.Eshqobilov</b> <b>TA'LIM JARAYONINI BOSHQARUVIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH</b>	<b>305</b>
<b>71</b>	<b>Turdiyeva Marjona Abdiholiq qizi</b> <b>LOGISTIKA TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI</b>	<b>307</b>
<b>72</b>	<b>Xudoyerova Ozoda Baxtiyarovna</b> <b>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI DARSLIK TIZIMIDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI.</b>	<b>310</b>
<b>73</b>	<b>Tўлқин Азимов</b> <b>TACABBУФ ТУШУНЧАСИ ВА ВУЖУДГА КЕЛИШ САБАЛЛАРИ</b>	<b>312</b>
<b>74</b>	<b>Arzikulova Kamola</b> <b>YANGI RENESANS AVLOD</b>	<b>316</b>
<b>75</b>	<b>Abdulkhamidov Abrorbek A'zamxon o'g'li</b> <b>UMUM O'RTA TALIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH</b>	<b>319</b>
<b>76</b>	<b>Ne'matullayeva Mahliyo Nasimjon qizi</b> <b>Nilufar Jumanazarova</b> <b>ZAKIYLAR "ZAKOVAT"DA SINALADI</b>	<b>322</b>
<b>77</b>	<b>Togaeva Gulnora Siddikovna</b> <b>Negmatova Gulzoda Shukhratovna</b> <b>Qurbanova Yulduz Student</b> <b>HYPOPHOSPHATASIA: A FAMILIAL CASE OF A RARE DISEASE.</b>	<b>324</b>
<b>78</b>	<b>Д.М.Абдурахмонов</b> <b>ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ И ДИНАМИКА ПАРАГЕНЕТИЧЕСКИХ ЛАНДШАФТОВ.</b>	<b>328</b>

**Raxmanova Dilfuza Uchkunovna**

([raxmanovadilfuza2@gmail.com](mailto:raxmanovadilfuza2@gmail.com))

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*

*Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada buyuk ajdodlarimiz ta'lomitida bola o'ziga munosabatini aks etgan. Barkamol avlodni tarbiyalashda o'zbek xalqining ta'lim - tarbiyaga oid fikrlari berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Barkamol avlod, tarix, odob, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, tarbiya.*

**Kirish (Introduction).** Qadimda buyuk allomalarimiz sog'lom avlodni tarbiyalashda shaxsning har tomonlama uyg'un rivojlanishiga alohida e'tibor qaratganlar. Ana shu ma'naviy me'rosning haqli vorislari sifatida ajdodlarimiz tajribalarini, tafakkur mevalarini o'zlashtirib, hayotning barcha sohalarida o'z o'rnila qo'llashimiz maqsadga muvofiqidir.

Barkamol avlodni tarbiyalashda o'zbek xalqining ta'lim - tarbiyaga oid tarixiy tajribasini o'rganish va uni yangi zamon kishisini shakllantirish va tarbiyalashda hayotga amaliy tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ajdodlarimiz ta'lomitlarida bilimni sevish va ardoqlash, olim-u fuzalolarni, ustozlarni hurmat qilish, ustoz-shogird munosabatlarida muomala madaniyati, insoniy fazilatlarni e'zozlash haqidagi ilmiy g'oyalari o'zbek xalqining og'zaki ijodi, eposining uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy me'rosdir.

Tarixiy manba hisoblanmish "Avesto" hozirgi o'zbek millati, uning etnik ongi va o'ziga xosligining ildizlarini vujudga keltirgan davr (VII asrgacha) uchun qoidalar va qonunlarning to'plami hisoblangan.

Qadimiy eposlarda bola tarbiyasida, uning bilim va hunar egallashida ustozlar ijtimoiy mavqega ega shaxslar sifatida gavdalanganadi. "Avesto"da yozilishicha, "Har bir kishini shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o'qish va so'ngra yozishni o'rganib, eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin".

Zardushtiylik ta'lomit bo'yicha ta'lim ta'lim-tarbiya quyidagicha olib borilishi ko'rsatiladi: 1) diniy va axloqiy tarbiya; 2) jismoniy tarbiya; 3) o'qish va yozishga o'rgatish.

Shunday qilib, Avesto yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan bo'lib, u hayotda o'z o'rniiga ega bo'lgan ma'naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsn shakllantirishga hamda ustoz-shogird munosabatini yaxshilashga yo'naltirilgan muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).**

Sharq mutafakkiri Axmad Yassaviy adab tushunchasini quyidagicha izoxlaydi: “Adab – go‘zal hulq, nafsi zohir va nafsi botinni tarbiya qilmoq. So‘fiylarning anglashlariga binoan adab 4 ga bo‘linadi:

1. Shariat adabi. Bu – payg‘ambar shariati va sunnatiga amal etmoq.
2. Tariqat adabi. Bu – tariqatga bog‘lanib, uning odob va arqonini o‘rganib, shu bo‘yicha harakat qilmoq.
3. Ma’rifat odobi. Bu – nafsi ammorani mag‘lub qilib, ilmi ilohiyini o‘zlashtirish.
4. Haqiqat odobi. Bu – Allohdan boshqasidan yuz burib, vaxdat mayidan qonmoq” .

Abu Nasr Forobiy (873-950) insonning ma’naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aqli-ongliligiga va axloqi – xulq -atvoriga e’tibor beradi. Shuning uchun, ta’lim-tarbiya uning fikricha, insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk, mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratilmog‘i lozim. Demak, ta’lim-tarbiyaning birdan-bir vazifasi – jamiyat talablariga to‘la-to‘kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal inson tayyorlashdir.

Insonni har tomonlama mukammal qilib tarbiyalash, unda ijobjiy xislatlarni shakllantirish shu yuqorida ko‘rsatilgan yo‘llar yordamida salbiy xislatlarning ta’siriga qarshi kurash natijasida amalga oshiriladi. Chunki, tashqi muhit ta’sirida inson ma’naviy yetuklikka tomon ham borishi mumkin, tushkunlikka ham uchrashi, jamoa talablaridan uzoq turgan salbiy shaxs ham bo‘lib yetishishi mumkin.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o‘z ilmiy-falsafiy ta’limotlarida tarbiya masalasiga alohida e’tibor berib, tarbiyada atrof-muhit va jamoaning ta’siri kuchlilagini, bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishning muhimligini e’tirof etadi. U ta’limning eng zarur tarkibiy qismlari deb quyidagilarni ifodalagan: 1) aqliy tarbiya; 2) axloqiy tarbiya; 3) estetik tarbiya; 4) jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasi; 5) do‘stlik tarbiyasi va baynalminal tarbiya.

Beruniyning fikricha, yoshlarni o‘qitish uchun o‘qituvchi tanlash birinchi va asosiy ish deb hisoblanib, bolalarni yoshligidanoq, aniqrog‘i 5-6 yoshdan o‘qitish lozim. Buning uchun o‘qituvchining xushmuomala, rostgo‘y, o‘z fanini yaxshi biladigan, pokiza, toza va ozoda, yurish va turishda namuna bo‘lishini talab etib, “agar tarbiyachi o‘rnak bo‘lmasa, aytgan gapiga o‘zi rioya qilmasa, uning bergen tarbiyasi samarasizdir”, deb uqtiradi .

Xullas, alloma o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, o‘quv-tarbiya jarayonini tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy imkoniyat darajalarini hisobga olgan holda amalga oshirish me’yorlari haqida o‘z ilmiy xulosalarini bayon qiladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning arab qomusiy asari “Tib qonunlari”da insonning tarbiyasi, bu tarbiyaning turli shakllari, vazifalari va maqsadlarini yoritib, inson yosh

jihatidan o'sib borishi bilan unga ta'lim-tarbiya berish vazifasi ham o'zgarib borishini ta'kidlaydi.

Uning fikricha, yosh bolalarni tug'ilgandan boshlab tarbiyalash uchun avvalo axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan, irodali, dono, g'amxo'r va dinga ishongan o'qituvchi va tarbiyachi tanlash lozimligini, uning sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo'la oladigan tarbiyachi bo'lishi kerakligini uqtiradi.

Ibn Sino bolalarni bitta-bittadan o'qitishdan ko'ra jamoada ta'lim-tarbiya berish, o'qituvchi bilan o'quvchining munosabatini o'rnatishni taklif etadi. Uning fikricha, jamoada o'qitilganda ularning ilmga intiluvchanligi kuchayadi, tengdoshlaridan orqada qolishga g'ururi yo'l qo'ymaydi. O'quvchilar o'rtasida fikr almashish, do'stlik munosabatlari tiklanib, o'z huquq va vazifalari haqida mulohaza yuritish qoidalarini shakllantirishga harakat kuchayadi. Undan tashqari jamoa bolaning nutqi o'sishida, fikrining charxlanishida, xotirasining mustahkamlanishida muhim o'rin kasb etadi. Ana shunday qoidalarga asoslangan o'quv-tarbiya jarayonigina yoshlarning aqliy va axloqiy kamolotini ta'minlaydi.

Ibn Sinoning ta'kidlashicha, o'qituvchi o'quvchilarga ta'lim berishga kirishishdan avval, bolaning xulq-atvorini o'rganishi va bilimlarini tekshirib ko'rishi, uni nimaga e'tibor berishini kuzatib, so'ngra unga hunar yoki ilm turini tavsiya qilishi maqsadga muvofiqdir.

Alloma Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya borasida ilmiy-falsafiy ta'limoti nafaqat Markaziy Osiyoda, xatto G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ham ilg'or fikrlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Yusuf Xos Hojibning (1020) "Qutadg'u bilig", ("Baxt-saodatga erishtiruvchi bilim" 1069 y. yozilgan) asari turkiy xalqlardagi ijtimoiy va oila tarbiyasi, maktablardagi fan tarmoqlari, o'qitish tizimining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi manbadir.

Muallifning fikricha, farzandlarning tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart, chunki, ularning noo'rin xatti-harakatlarga berilishining oldi olinadi. Buning uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan ezgu niyatli va pokiza murabbiy taklif etilishi zarurligi ta'kidlanadi .

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) "Mahbub-ul qulub" asarida o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabat etikasiga alohida e'tibor qaratdi. O'qituvchining qo'polligi, qattiq qo'lligi o'quvchilar bilan bo'lgan munosabatlaridagi xatti-harakatlarida albatta ifodalanishi, rahmsiz, ko'ngli tosh, farosatsizligi va ta'magirligini esa uning yuz-ko'z ifodalaridan, nutq ifodasidan, xatti-harakatlaridan osongina uqib olish mumkinligini, buning hammasi esa, o'qituvchining aqli kamlikka giriftor bo'lganligini ko'rsatib, endi yoshlarni tarbiyalash emas, ularning taqdirida bir qator jumboqlar, kamchiliklar, buzilishlar bo'lishiga ayni sababchi bo'lishini ko'rsatadi. A.Navoiyning "Ular qiyash yo'li bilan bolalar ko'nglini

o‘zlariga rom qilmoqchi va kichkintoylarning beqaror tabiatini do‘q-po‘pisa bilan tartibga solmoqchi bo‘ladilar. Ulardagi ko‘rinib turgan qo‘pollik yosh bolalardagi kelishmagan xatti-harakatni silliqlashga yirik egovdir”- degan ibratomuz so‘zları yuqoridagi fikrimizni tasdiq etadi .

Shu bilan birga, A. Navoiy o‘qituvchining bir qancha ijobiy sifatlarini – qat’iyligi, mehnatsevarligi, bilimdonligi, mehribonligi, xatto tashqi qiyofasi, saranjom-sarishtaligi, ozodaligi, yaxshi odatlari, chiroyli qaddi-qomati va yurish-turishi bilan hammaga namuna bo‘lishini, har bir o‘quvchiga undagi o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda yondashish lozimligini ko‘rsatib o‘tadi hamda tarbiya ishi juda mashaqqatli, murakkab ish ekanligini alohida e’tirof etadi. “Lekin insof bilan aytganda, har qanday irodali odamni ham birgina bola tarbiyasi charchatadi. Maktab domlesi esa, bir to‘da bolaga ilm-adab o‘rgatadi... Lekin shunisi ham borki, bolalar orasida fahmi, idroki ozlari bo‘ladi. Shu jihatdan olganda, bolalarda uning haqi ko‘p”. Bu fikrlardan tarbiyachining ishi naqadar mashaqqatli ekanligini bilib olish mumkin.

#### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).**

Rus pedagogi G.K.Mitrofanov so‘fiylik davriga xos tarbiyalash va o‘qitishdagi ayrim insonparvarlik an’analarini yoritgan. Bunday an’analar o‘qituvchining so‘fiylik ta’limotida ifodalangan majburiyatlarda yaqqol ko‘rsatiladi. Ana shu majburiyatlarning eng asosiyлари quyidagilardan iborat:

1. O‘qituvchi bolalarni yoqtirishi va ularga o‘zining farzandlaridek, munosabatda bo‘lishi kerak. Shuningdek, bolalarning zaif jihatlarini doimo tushunishi va ularni shu zaifligi uchun yanada avaylashi lozim.
2. O‘qituvchi o‘zining ishi uchun haq ta’mal qilmasligi, in’om olmasligi yoki minnatdorchilik kutmasligi kerak. U o‘quvchidan o‘qishni xohlaganligi uchun minnatdor bo‘lishi zarur.
3. O‘qituvchi hech qachon o‘quvchiga maslahat berishdan bosh tortmasligi kerak. Olg‘a siljishni o‘quvchi emas, o‘qituvchi baholaydi.
4. O‘qituvchi o‘quvchini yomon yo‘ldan qaytarishi uchun unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki nimalargadir shama qilib gapirishi lozim.
5. Ma’lum fanni o‘rgatadigan o‘qituvchi o‘quvchilarning oldida boshqa fanlar haqida nojo‘ya gap aytmasligi kerak.
6. O‘qituvchi nimani o‘rgatsa, o‘zi ham shunga amal qilishi shart. U birinchi galda o‘qishning samarasini ifodalaydigan jonli misoldir va hokazo”

#### **Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

XIX-XX asrlarda yashab ijod etgan buyuk ma’rifatparvar allomalarimiz Ahmad Donish (1827-1897), Furqat (1858-1909), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Abdulla Avloniy (1878-1934), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929), Cho‘lpon (1897-1938) va boshqalar ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchi munosabatlarini yo‘lga

2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR

qo‘yishda millatning milliy xususiyatlari va o‘ziga xosligini saqlagan holda jahon sivilizatsiyasining eng yaxshi an’analarini o‘rganishga da’vat etdilar.

Ahmad Donish o‘qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e’tibor berib, uning yosh avlodni tarbiyalash maqsadida o‘z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o‘z ustida ko‘p ishlashi zarurligini alohida e’tirof etadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Shunday qilib, buyuk ajododlarimizning bolalarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash va ularda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirishda o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarining psixologik xususiyatlari to‘g‘risidagi ta’limotlaridan hozirgi o‘quv-tarbiya jarayonida ham oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. 1.G‘oziev E.G. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent, 1988.
2. .Qaykovus. Qobusnomा. – Toshkent: O‘qituvchi, 1973.
3. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 3 jildlik saylanma 4. Abu Rayhon Beruniy. Tarvixlar (“Javohirot kitobi”dan “Mineralogiya ”) – Toshkent: Meros, 1991.
4. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyoti , 1993.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
6. Avesto (Asqar Mahkam tarjimasi) – Toshkent: Sharq, 2001.
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul – Qulub. – Toshkent, 1983.
8. 9. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adab. va san’at nashriyoti, 1991.